ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ
JOQARÍ BILIMLENDIRIW, ILIM HÁM INNOVACIYALAR MINISTRLIGI

ÁJINIYAZ ATÍNDAĠÍ NÓKIS
MÁMLEKETLIK PEDAGOGIKALÍQ INSTITUTÍ

PEDAGOGIKA KAFEDRASÍ

«ZAMANAGÓY TÁLIM MÁSELELERI HÁM KELESHEKLERI: JOQARI BILIMLENDIRIW HÁM MEKTEP ÁMELIYATI» ATAMASINDAĠI RESPUBLIKALIQ ILIMIY- TEORIYALIQ HÁM ÁMELIY KONFERENCIYA MATERIALLARÍ

«ZAMONAVIY TA'LIM MASALALARI VA ISTIQBOLLARI: OLIY TA'LIM VA MAKTAB AMALIYOTI» MAVZUSIDA RESSPUBLIKA MIQYOSIDA ILMIY-NAZARIY ANJUMAN MATERIALLARI

Nókis - 2023

UDK **«Zamanagóy tálim máseleleri hám keleshekleri: joqarı bilimlendiriw hám mektep ámeliyatı»** atamasındaǵı Respublikalıq
BBK: ilimiy- teoriyalıq hám ámeliy konferenciya materialları toplamı. 2023-j 305 bet

«Zamanagóy tálim máseleleri hám keleshekleri: joqarı bilimlendiriw hám mektep ámeliyatı» atamasındaǵı Respublikalıq ilimiy- teoriyalıq hám ámeliy konferenciya materiallarına respublikamızdıń joqarı hám orta arnawlı oqıw orınları pedagog-xizmetkerleri, úlken ilimiy xizmetker-izleniwshiler, magistrantlar, talabalar ilim-tárbiya máselelerine arnalǵan ilimiy bayanatları kirgizilgen.

Konferenciya materiallarınıń mazmunı hám onda kórsetilgen dereklerdiń durıslıǵına avtorlar juwapker.

JUWAPLÍ REDAKTOR: Q.QOShANOV

REDKOLLEGIYA QURAMÍ:

1. P. Eshmuratov-Ilimiy isler hám innovaciyalar boyınsha prorektor redkollegiya baslıǵı orınbasarı
2. Sh. Saparov-pedagogika fakulteti dekanı., docent
3. A. Nauruzbaeva-pedagogika kafedrası baslıǵı., professor
4. M. Pazilova-pedagogika kafedrası professor w.a., p.i.d (DcS)
5. D. Gaipov- pedagogika kafedrası aǵa oqıtıwshısı (PhD)
6. M. Sobirova- pedagogika kafedrası aǵa oqıtıwshısı, tex redaktor
7. M. Erejepov- pedagogika kafedrası assistent oqıtıwshısı, tex redaktor
8. Sh. Mambetyarov- pedagogika kafedrası assistent oqıtıwshısı, tex redaktor

xal etishda, uning asosiy va muhim xal etish yo'llarini izlab topish bu o'quv faoliyatning asosiy sababchilaridan biridir. Tasviriy faoliyat jarayonida o'z ishini nazorat qilib borish, maktabda vazifalarni bajarishda ham rol o'ynaydi.

Tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini to'g'ri rejalashtirishda, mashg'ulotlar o'rtasida ularning dastur vazifalari, mavzular o'rtasida bog'lanish vujudga keladiki, buning natijasida yangi malaka va ko'nikmalarini va bilimlarni egallashlarida ma'lum ketma-ketlik va bog'lanish vujudga keladi. Masalan, "Qushlar" mavzusi asosida olib borilgan mashg'ulotlar jarayonida bolalar don cho'qiyotgan qushni loydan yasashni, shoxda o'tirgan qushni rasmini chizishni, afsonaviy qushni qanday qilib qog'ozdan qirqib olishni bilib oladilar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat vositasida bolalarning estetik qobiliyatlarini shakllantirishda tarbiyachining o'rni beqiyos. U chuqur bilim va yuqori malakaga ega bo'lishi, buning uchun muntazzam ravishda o'z ustida ishlashi, o'zining ilmiy nazariy saviyasini tinimsiz ko'tarishi, ilg'or tajribalarga tayanishi kerak.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.Sodikova .Maktabgacha pedagogika. Tashkent 2017 y.
2. Nurmatova M.Sh. Xasanova Sh.T. "Rasm buyum yasash va bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi". "Cho'lpon", T:.2010 y.

MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH MILLATNING MA'NAVIY KAMOLOTI.

Toremuratova Gulnaz

Nukus innovatsion instituti

Milliy o'zlikni anglash millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. Milliy o'zlikni anglash millatning o'z tarixi, madaniyati, milliy qadriyatlarini bilishi, milliy urf-odat va an'analarini ezozlashi, ajdodlarining ma'naviy merosidan

bahramand bo‘lgan holda uni asrab-avaylab kelajak avlodga qoldirishi kabi xususiyatlar tushuniladi. SHu ma’noda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning “Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab avaylash, o‘rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir" [1], degan fikrlari milliy o‘zlikni anglashda tarixiy merosning ahamiyatini yaqqol ko‘rsatib beradi.

Mustaqillik haqida so‘z ketganda, albatta, unga erishish yo‘lidagi murakkabliklar va uni mustahkamlash jarayonlari ko‘z o‘ngimizdan o‘tadi. Mamlakatimiz mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng barcha yo‘qotilgan moddiy va ma’naviy qadriyatlarimiz qayta tiklandi, respublikamiz o‘z taqdiriga o‘zi egalik qiladigan bo‘ldi. Biz ham mustaqil davlat sifatida milliy o‘zligimiz, davlat ramzlarimiz, tilimizga ega bo‘ldik. Keling, milliy o‘zlik haqida to‘xtalib o‘tamiz, zero milliy o‘zlik nima o‘zi, u qayordan kelib chiqadi, nimalarga asoslanadi, shu kabi savollarga javob bermasdan turib fikrimizni ifoda qila olmaymiz.

Milliy o‘zlik deganda umumiy ma’noda muayyan millatga mansublik, umumiy ruhiy holatlar, til, madaniyat, ma’naviyat, iqtisodiy-ijtimoiy qadriyatlar tasavvurimizga keladi. Lekin milliy o‘zlikni anglash tushunchasi biror bir davlat, jamiyatda yashovchi xalqlarga tegishli tushuncha sifatida ifodalanadi. Milliy o‘zlikni anglash orqali, xalqimiz mustaqillikni qo‘lga kiritdi, uning bebaxo ne`mat ekanligini angladi, hozirda esa amalga oshirilayotgan islohotlar, o‘zgarishlar mazmunini to‘g‘ri tushunib kelmoqda.

O‘zbekiston xalqi bugun o‘z nufuzidan, boy o‘zligidan qancha g‘ururlansa arziydi. Tarixdan ham ma’lumki, barcha xalqlar singari o‘zbek xalqining ham insoniyat tsivilizatsiyasining vujudga kelishidan boshlab to davlatchilik, ilm-fan, ma’rifatga qo‘shgan hissasi fikrimizning yorqin isboti bo‘lib hisoblanadi.

Bugun O‘zbekistonda ilgari sodir bo‘lmagan voqeliklar amalga oshmoqda, chuqur o‘zgarishlar bizning hayotimizga ham shiddat bilan kirib kelmoqda. Har sohada yangilik, izlanishlar haqida so‘zlar ekanmiz, mustabid tuzum hukmronligi bilan

bunday o‘zgarishlarga erishib bo‘lmasligi, mustaqillik nechog‘lik ulug‘ ne`mat ekanligi va uni asrav-avaylashimiz kerakligi ko‘z oldimizda namoyon bo‘laveradi. Mustaqillik yillarida yurtimiz har tomonlama rivojlandi. Ilgari xatto kichik biznes, tadbirkorlik, investitsiya kabi qator tushunchalariga ega ham emas edik. Bugun esa aynan shu sohalar yurtimizda ustunlikka erishib kelmoqda. Xotin-qizlarga har tomonlama e`tibor ko‘rsatish, ularning huquq va manfaatlarining munosib amalga oshirilishini ta’minlash bo‘yicha qilinayotgan ishlar esa barchamizni birdek hayratga solmoqda. Bugun biz ozod va obod, osoyishta va mustaqil vatanda yashamoqdamiz. Istiqlol farzandi ekanligimiz, shunday go‘zal davrda tug‘ilib, yaratilayotgan keng imkoniyatlaridan foydalanish baxtiga muyassar ekanligimizdan qancha faxrlansak etmaydi. Xalqimiz shu kunlar ko‘rish uchun qancha yo‘llarni bosib o‘tdi, natijada esa salohiyatli islohotlar va keng imkoniyatlarni qo‘lga kiritdi. Bu albatta xalqimizning orzu-istaklari, o‘zaro ishonchi, har bir insonning metin sabr-bardoshi va albatta mashaqqatli say - harakatlari hosilidir.

Milliy o‘zlikni anglash xalqning rivojlanish yo‘nalishini uning xalqaro miqyosda o‘zaro hamkorlik va birdamligi hamda umumiy fuqarolik mentalitetining shakllanishida O‘zbekiston jamiyatini yangi sifatiy bosqichdagi hamjihatlikka yo‘naltiradi. Ushbu maqsadni tub millat manfaati bilan bir qatorda jamiyatdagi barcha guruhlar manfaatlarini ham hisobga olgan holda izchillik bilan amalga oshirib borish milliy taraqqiyotni ta’minlovchi asosiy omildir.

Xulosa o‘rnida aytishimiz joizki, bugun biz uchun qator imkoniyatlar eshigi ochilgan. Bunga javoban esa barcha sohada o‘zligimizni namoyon qilib, amalga oshirilayotgan ishlarga munosib hissamizni qo‘shishimiz, bildirilgan ishonch, yaratilgan imkoniyatlarni esa oqlamog‘imiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Mirziyoev SH.M.Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat`iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.T.: “O‘zbekiston”, 2017. B.-29.

2.Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. 11-jild. – T.: O‘zbekiston, 2003. B.-34.

Аляминов. Х. И	**Талабаларда тадбиркорликга оид компетенцияларни шакллантиришнинг аҳамияти.....**	**207**
Kdirbayeva. X. M	**Pedagogning kasbiy sifatlarida va faoliyatida ijtimoiy intellekt tushunchasining ahamiyati.....**	**210**
Genjeeva. U. T	**Joqarí bilimlendiriw mákemelerindegi aktual máseleler.....**	**215**
Kallibekova. Z	**Bilimlendiriwdiń sapasín arttíríwda pedagogtíń kompetenciyací hám oníń áhmiyeti.....**	**218**
Saparov. Sh **Ilyasov. T**	**Joqarí klass oqíwshísí hám oqítíwshí arasíndaǵí múnásebetlerdiń pedagogikalíq-psixologiyalíq ózgeshelikleri.....**	**221**
Abdisharipova. Sh	**Kompetentsiyaviy yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish……**	**223**
Yuldosheva. Sh **Masharipova. B**	**Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini tashkil etish.....**	**227**
Toremuratova. G	**Milliy o‘zlikni anglash millatning ma’naviy kamoloti…….**	**230**
Sobirova. M **Turǵanbekov. R**	**Basqaríwda basshí kompetenciyalarín rawajlandíríw.....**	**233**

«Zamonaviy ta’lim masalalari va istiqbollari: oliy ta’lim va maktab amaliyoti» mavzusida

Respublika miqyosida ilmiy-nazariy anjuman

MATERIALLARI

Ájiniyaz atındağı NMPI baspaxanasında basılğan. 2023-j
Buyırtpa №. Nusqası-50 dana. Formatı 60x84. Kólemi 19 b.t.230100,
Nókis qalası, P. Seytov. n/j Reestr №